

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL QILISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR

Mamadaliyeva Dilnoza Allayorovna

(GulDU magistranti)

Akkulova Yulduz Alimovna

(TKTI Yangier filiali katta o'qituvchisi)

Annotasiya Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarini tashkil qilishga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar va tamoyillar nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar Pedagogika, pedagogik talab, tamoyil, metod, usul, uslub, metodika.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limning yangi ustuvor yo'nalishlari belgilandi. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi[5]da o'quvchilarning funktsional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. Maktab ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy yo'naltiruvchi nuqtasi sifatida maktab o'quvchilari funktsional savodxonligini rivojlantirish ularning jamiyatda faol ishlash, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Yuqoridagi bandlarda keltirilgan xalqaro tadqiqotlar natijalari va tahlillaridan kelib chiqib, o'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish uchun ularning bilim va ko'nikmalariga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

matematikaga oid ta'riflar, formulalar va boshqa faktlarni o'quv va ma'lumotnomalardan qidirish va foydalanish;

turli hayotiy vaziyatlarda algebraga doir bilim, ko'nikma va grafik malakalarini qo'llash;

ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash, sintez qilish;

matematik formuladan foydalanish, muayyan xususiy hollarni umumlashtirish asosida miqdorlar orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi formulalarini mustaqil ravishda tuzish;

o'zlashtirilgan algebraik almashtirishlarni va funktsional grafik tasvir va tasavvurlarni tevarak-atrofdagi yoki boshqa fanlardagi tegishli ob'ektlarni ifodalash va tahlil qilishda qo'llash;

o'z nuqtai nazarini asoslay olish, uning muhokamasida ishtirok etish va mantiqiy jihatdan to'g'ri xulosa chiqarish;

matematik matn bilan ishlash (tahlil qilish va kerakli ma'lumotlarni chiqarib olish), o'z fikrini matematik atamalar, timsollar va ramzlar yordamida aniq va to'g'ri yozish hamda og'zaki va yozma izhor qila olish;

amaliy xarakterdagi hayotiy masalalarni yyechish, zarur hollarda ularni yechishda kerakli ma'lumotnomalar va hisoblash vositalarini qo'llay olish, jadvallar, diagrammalar, grafik ko'rinishdagi real raqamli ma'lumotlarni hamda statistik xarakterdagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

amaliy xarakterdagi matematik muammolarini hal qilish vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Mavjud vaziyatni hal qilish uchun boshlang'ich sinf matematika o'qituvchilariga quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

matematik nutqni to'g'ri va aniq shakllantirish;

matnli masalalarini yechishda matematik mazmun va usullarni ajratib ko'rsatish va yangi holatga qo'llash;

masala shartlarini matnli ko'rinishdan matematik tilga o'girish va bu shakl almashtirishlarning mazmun va mohiyatini ochib borish;

o'quvchilarda ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va faol aqliy harakatlarni amalga oshirishlari uchun muammoli vaziyatlarni yaratish.

ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabaqalashtirilgan individual shug'ullanish traektoriyalarini yaratish;

darsda interfaol va faol ta'lim texnologiyalari: loyiha metodi, keys, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, matn bilan ishlash, klaster, poster, sinkveyn, BBB, FSMU, baliq skeleti, nilufar guli kabi metodlardan o'rnida foydalanish.

Kompetentsiyaga asoslangan o'quv topshiriqlari qanday bo'lishi kerak?

Matematik masalalar – o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning eng asosiy vositasi hisoblanadi;

Odatiy (standart) matematik masala:

har qanday matematik masala “Shart” va “Xulosa” qismlardan tuziladi;

“Shart” qismida “Ma'lum” kattaliklar beriladi va “Xulosa” qismida esa “Noma'lum” kattaliklarni topish talab qilinadi;

“Noma'lumlar”ni topish uchun “Ma'lumlar”dan foydalaniladi.

Standart masalalar

standart masala shartida berilgan “Ma'lumlar” “Noma'lumlar”ni topish uchun ko'p ham bo'lmaydi oz ham bo'lmaydi;

darsda ko'pincha standart ko'rinishdagi masalalar echiladi;

standart masalalar darslikda ko'rilgan standart usullar bilan echiladi.

Nostandart masalalar

nostandart masala shartida berilgan “Ma'lumlar” nostandart ko'rinishda berilishi mumkin;

“Ma'lumlar”“Noma'lumlar”ni topish uchun keragidan ortiq ham bo'lishi mumkin, shuningdek, etarli bo'masligi ham bo'lishi mumkin;

nostandart masalalarni yechishning standart usullari yo'q, har biri o'zgacha yondashuvni talab qiladi;

darsda nostandart ko'rinishdagi masalalar deyarli echilmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'limning asosiy didaktik prinsplari va tamoyillari

Ilmiylik prinsipi berilayotgan bilim mazmuni ilmiylik asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Tarbiyaviylik prinsipi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tasavvurlarni shakllantirishda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga harakatini, ularni egallash va mustaqil kengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va diqqatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu prinsip o'quvchilarda ziyraklik, topqirlik, aqllilik xislatlari bilan birga vatanga muhabbatni hamda rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalash ham matematika mashg'ulotlarida amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ifodalaydi.

Nazariya va amaliyotning birlik prinsipi. Bu prinsip berilgan nazariy bilimlarning hayotga, amaliyotga bog'lanishini butun choralar bilan kengaytira borishni talab qiladi. Matematika nazariyadan bevosita har-xil mashq va masalalarni yyechishga o'tish yo'li bilan bu prinsip keng suratda amalga oshiriladi. Haqiqatdan ham o'quvchilarga har kuni ko'zi bilan ko'rib yurgan xonada, ko'chada, uydagi narsalar bilan bog'langan

holda mashg'ulot o'tish, ya'ni bilim berish lozim, chunki bu o'quvchilarning tez tushunib olishiga, o'zlashtirishiga yordam beradi.

Ko'rgazmalilik prinsipi. O'quvchilar tafakkurining aniqlikdan abstraktlikka qarab rivojlanish xususiyatlariga bog'liqdir. Matematikani o'qitishdan asosiy maqsad mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iboratdir; biroq matematikani o'qitish aniq fakt va obrazlardan ajralmasligi, aksincha, har qanday masalani o'rganishi shu aniq fakt va obrazlarni tekshirishdan boshlash kerak. Ko'rgazmalilik o'quv

materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi va bilimning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

M: doira haqida gapirganimizda bolaning har biriga doirachalardan berib qo'yib bolalar ikki qo'llari orasida ushlab ko'rishlari kerak. Uning dumaloq ekanini, tekis ekanini qo'l uchidagi o'quvchining hamma analizatorlari qatnashgan holda eslarida yaxshiroq qoladi.

Bilimlarni o'zlashtirishda sistemalilik, ketma-ketlik va mustahkamlik prinsipi. Matematikada materialni sistemali bayon etishning ahamiyati juda katta, chunki matematikada ayrim faktlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlar g'oyat muhimdir. O'quvchilarga berilayotgan bilim alohida-alohida bo'lib qolmay, bir-biri bilan bog'langan holda oson misollardan boshlanib asta-sekin murakkablashtirib borilishi lozim.

Puxta o'zlashtirish prinsipi esa matematikada ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Matematik tushunchalar o'zaro shu qadar bog'langanki, majburiy minimumning biror qisminigina bilmagan taqdirda ham bolalar o'z bilimlarini hayotda foydalana olmay qoladilar va matematik bilim olishni davom ettirish qiyinroq bo'ladi.

Matematikada son va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, tevarak atrofni bilishni, vaqtni chamalash malakalarini puxta egallashining ham ahamiyati juda katta. Ayniqsa, matematikada boshqa fanlardagiga qaraganda ham, programmaning biror qismini yaxshi o'zlashtirmasdan va malakani yaxshi mustahkamlamasdan turib, muvaffaqiyat bilan oldinga qarab borish mumkin emas.

Individual yondashish (ravonlik) prinsipi. Ravonlik prinsipi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ya'ni qobiliyatlarini, psixologiyasini hisobga olish kerak degan talablardan kelib chiqadi va bu prinsip matematikani o'qitish protsessida amalga oshirilishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Н.У.Бикбаева, Р.И.Сидельникова, Г.А.Адамбекова “Бошланғич синфларда математик ўқитиш методикаси” – Т.: О‘қитuvchi, 1996. – 512 б.

2.Raximov B.H., Mavlyanov A., Choriev V., Abdalova S., Temirova N.S. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda//O‘quv qo‘llanma. – Т.: ОО‘МКНТРМ, 2009. – 124 б.